# Qatag'on qurbonlari - vatan fidoyilari

Inson aziz - xotira muqaddas joriy yilning 7- oktyabr kuni Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti 406- guruh murabbiysi Ra'no Kodirova , guruh talabalari O'zbek xalqi ozodligi va mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlarni yod etish maqsadida " Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui va " Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga tashrif buyurdilar. Mustabid tuzum yillarida qatag'onga uchragan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning ibratli hayoti va faoliyati , ilmiy ijodiy merosini chuqur o'rganish yoshlarimiz qalbida ajdodlarimiz ruhiga ehtirom, ijtimoiy adolat tantanasiga ishonch, istiqlol g'oyalariga sadoqat, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularini uyg'otadi, albatta.

Tashrif davomida talabalar vatanimizni himoya qilishda jonini fido qilgan, xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan, bugungidek tinch ba osuda hayotni bizga yaratib bergan millat qaxramonlariga nisbatan chin dildan minnatdorchilik hissini tuydilar. "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi Ra'no Kodirova ma'lumoti

**TIQXMMI matbuot xizmati**